

TAFAKKURINING RIVOJLANISHIDA MULOQOTNING O'RNI VA AHAMIYATI

Qodirova Malikaxon Kaxramonovna

JDPU, katta o'qituvchi

Annotasiya: *Maqolada inson ongi taraqqiyoti, inson ruhiy hayotining o'ziga xosligi, bilish jarayonlarining o'ziga xos rivoji va unda tafakkur jarayonining o'rni, ahamiyati ochib berilgan. Shu bilan birga tafakkurning rivojlanishida muloqotning o'rni va o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda ularga ta'lim berish jarayonini samarali tashkil etish mazmuni haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *ong, taraqqiyot, ruhiy hayot, irsiyat, ta'lim-tarbiya, muloqot, tafakkur, harakat, hissiyot, aql, intuitiv, dars, zamonaviy o'qitish, munozara, muhokama, nutq, bilish jarayonlari.*

Аннотация: *В статье описывается развитие человеческого сознания, своеобразие духовной жизни человека, своеобразие развития познавательных процессов, роль и значение в ней мыслительного процесса. При этом выделена роль общения в развитии мышления и содержание эффективной организации процесса обучения им в развитии мышления учащихся.*

Ключевые слова: *сознание, развитие, духовная жизнь, наследственность, воспитание, общение, мышление, действие, эмоция, разум, интуиция, урок, современное обучение, дискуссия, дискуссия, речь, познавательные процессы.*

Annotation: *The article describes the development of human consciousness, the originality of the spiritual life of a person, the originality of the development of cognitive processes, the role and significance of the thought process in it. At the same time, the role of communication in the development of thinking and the content of the effective organization of the process of teaching them in the development of students' thinking are highlighted.*

Keywords: *consciousness, development, spiritual life, heredity, education, communication, thinking, action, emotion, mind, intuition, lesson, modern education, discussion, discussion, speech, cognitive processes.*

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarni qo'llanilishi jadallashmoqda va bu ta'lim jarayonini yanada sifatli tashkil etishga ta'sir ko'rsatayotgani ko'zga tashlanmoqda. Shuning uchun xam ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning extiyojiga aylandi. Bu ehtiyoj ta'lim faoliyati orqali amalga oshiriladi. Hozirgi kundagi ta'lim faollikni, ijodkorlikni talab qiladi.

Ta'lim inson psixologiyasini shakllantirish va rivojlantirish kuchiga ega. Faqat bu jarayon o'qituvchi oldiga ko'pgina talablarni qo'yadi. Bu talablardan oldin tafakkur jarayoniga to'xtalib olsak.

Tafakkur - insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq, to'liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga (bilishga), insonni talqin ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi deb ta'riflanadi.

Tafakkurning so'z yordami bilan ifodalanishini M.V.Gamezo tomonidan bayon qilingan: "tafakkur voqelikning umumlashgan holda va so'z hamda o'tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi".

A.V.Petrovskiy tahriri ostidagi darslikda tafakkurga quyidagicha ta'rif keltiriladi: "Tafakkur - ijtimoiy sababiy, nutq bilan chambarchas bog'liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilish, uni bavoita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir".

Demak, inson tafakkurini so'z, nutq, muloqot va munosabatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Inson miyasida har daqiqada yuzlab fikrlar o'tadi. Ularning qanday maqsadga qaratilganligini, qay darajada samaradorlikka ega ekanligini bilish inson faoliyatining qaysi tomonga yo'nalishini bilish imkonini beradi. Shu sababli fikrlar ustida ko'proq muhokama o'tkazish inson uchun har tomonlama samara keltiradi.

Inson ongli mavjudot. Uning ongi jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun tub me'zon bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatning tarkibiga aylanish uchun inson shaxs sifatida shakllanishi lozim. Insonning shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar – irsiyat, muhit (oila mikromuhiti) hamda ta'lim-tarbiyadir. Hozirgi kunda bizning oldimizda turgan dolzarb muammolardan biri insonni shaxs sifatida emas, balki uni ma'naviyatli, dunyoqarashi keng, tafakkuri yuksak darajadagi shaxs sifatida shakllantirishimiz zarur. Har tomonlama rivojlangan, yetuk, komil inson (shaxs)ni tarbiyalash uchun yoshlarni erkin fikrlaydigan qilib voyaga yetkazish zarur.

B.G.Ananev "Odamni bilishning predmeti sifatida" nomli asarida bu masalani chuqur tahlil qilgan va muloqot odamni bilishning predmeti ekanligini ta'kidlab o'tgan. Shu bo'yicha ta'lim jarayonida o'quvchilarning bir-biri bilan bo'ladigan muloqot jaryonini kuzatish va muloqot yo'nalishini to'g'ri yo'lga qo'yish pedagogka yuklatilgan muhim vazifalardan biridir. B.G.Ananevning fikricha, muloqot ijtimoiy va individual holatdir. Shuning uchun bu nutq bilan uzviy bog'liq. O'z navbatida nutqning qay darajada rivojlanishi tafakkurga borib taqaladi. Tafakkur – shaxsning borliqni, u har doim munosabatga kirishadigan kishilarni to'liq, tub mohiyatini anglashini ta'minlovchi omildir. Tafakkur orqali barcha narsaga erishish mumkin. Tafakkur – voqelikning umumlashtirilgan, bevisita va eng to'liq hamda eng aniq intihosidir. Odam tafakkuri, fikrlash faoliyati tufayli voqelikni idrok va tasavvurlaridagiga qaraganda chuqurroq, aniqroq va to'laroq bilib oladi. Inson har qanday faoliyatda biror maqsad sari harakat qiladi. Shu jarayonda fikrlash, tahlil qilish, umuman olganda tafakkur operatsiyalari amalga oshadi. Harakatlanish davomida u o'zi uchun kerak bo'lgan barcha omillarni o'z atrofiga yig'a boshlaydi. Natijada, inson faoliyat davomida yuzaga kelgan vaziyatlarga to'g'ri munosabat bildirishi ta'minlanadi. Shunday

ekan oldimizda yana bir vazifa turadi. Shaxs tafakkurini qanday rivojlantirish mumkin? Uni rivojlantirishda qanday usullardan foydalanish samaraliroq?

Inson faoliyat yuritar ekan uni o'rab turgan muhitni, uning mohiyatini bilishga intiladi va ular to'g'risida bilimlarga ega bo'ladi. Bu o'rinda hissiy (emperik), aqliy (ratsional) hamda intuitiv bilish o'zini namoyon qiladi. Bilishning bunday darajalaridan samarali foydalanish uchun ham avvalo tafakkur kerak bo'ladi. Chunki, yuqorida ham ta'kidlab o'dik, tafakkur borliqni yaqqol, hech qanday kamchiliklarsiz, yagona bir tizim ko'rinishida ongimizda gavdalandiradi. Uni rivojlantirish esa har bir o'qituvchining zimmasida. Bu masalaga quyidagicha yondoshamiz.

O'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishning yagona yo'li ularga ta'lim berish jarayonini samarali tashkil etish. Dars jarayonida yuzaga kelgan bahs-munozaralarni oydinlashtirish va bu jarayonga o'quvchilarni jalb etish, ularni muloqotga chaqirish juda katta ahamiyatga ega.

Hozirgi davr ta'lim tizimi bo'yicha dars mashg'ulotlarining tashkil etilishida o'quvchilarning ko'plab jihatlarini hisobga olish o'quvchini yanada yaxshiroq o'rganishga yordam beradi. Zamonaviy o'qitishning pedagogik va psixologik texnologiyalaridan foydalanish orqali dars jarayonining samaradorligini oshirish mumkin. Faol o'qitish metodlari va ularni tashkil etish orqali bunga erishish mumkin. Faol o'qitish metodlariga eng avvalo bahs va munozara yo'li bilan bilim va malakalar hosil qilish tushuniladi. Baxsning samarali bo'lishi, eng avvalo, baxslashuvchilarning bir-birlariga nisbatan fazoviy joylashuviga bog'liq. Quyida keltirilgan chizmada tinglovchi va muzokarada qatnashuvchilarning fazoviy joylashuvlari va ularning psixologik mavqelarining mohiyati keltirilgan. Bunday joylashuv qatnashuvchilarda o'ziga xos ruhiy tayyorgarlik va mas'uliyat hissini keltirib chiqaradi.

“Men - munozarada” deb ataluvchi bu holat ayni muhokama o'tkazish, muloqotga kirishish uchun qulay. Chunki unda shaxs o'z fikrini dadil aytish uchun imkoniyatni his qiladi.

Psixolog-olim V.N.Myasishevning fikricha: “Shaxs turli munosabatlarda turlicha qarama-qarshi sifatlarni namoyon qiladi”. Demak, biz o'quvchilarni qanchalik yaxshi bilishni xohlasak ularni ko'proq muloqotga chaqirishimiz, erkin fikr yuritishiga imkon berishimiz lozim. Aynan ta'lim jarayonida shunday vaziyatlarni tashkillashtirsak, ularning bildirgan fikrlari yuzasidan turli bahs-munozaralarni yuzaga keltirsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'quv-dars jarayonini tashkillashtirishda fan o'qituvchilari dars mavzusiga doir bahs-munozaralarni o'tkazishlari va bu muhokamaga barcha o'quvchilarni jalb etishlari bir soatlik dars davomida ko'proq o'quvchilarni baholashga erishishlariga imkon beradi. Mana shu jarayonda malakali pedagog o'quvchilarning nafaqat ilmiy bilimlariga, balki individual xususiyatlariga ham “baho” beradi va shu orqali o'quvchilarni har tomonlama o'rganadi. Bahs-munozara masalasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu orqali o'quvchilarda yanada izlanish, ko'proq narsalarni bilishga qiziqish hissini orttirish mumkin. Chunki, o'quvchilardagi yetakchilikka bo'lgan intilishning, sinfdagi liderlikni egallashga bo'lgan intilishning yuqoriligi ularni muhokama qilishga undaydi. Bundan tashqari bahs yuritish,

muhokama tarzda suhbat olib borish o'quvchilarning nutq faoliyatiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Nutqning tafakkur bilan bog'liqligini hisobga oladigan bo'lsak, nutq va tafakkur bir birini doimo talab qiladi. Chunki fikrlash jarayonida fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlash uchun, avvalo, fikr muhokamaga qo'yilishi kerak. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, nutq tafakkurning ajralmas bir qismi. Atrofimizda nutqi rivojlanmagan insonlar ham ko'p uchraydi. Ularning tafakkuri nutqsiz ham rivojlanadi. Ammo, yuksak tafakkurga, barkamollikka erishish uchun har tomonlama yetuk bo'lish talab etiladi.

Nutqning shakllanishi uchun ko'proq adabiyotlar o'qish, ko'proq muloqotga kirishish ulkan samara keltiradi. Kuzatishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, nutqi rivojlanmagan bolalarning 20%i tug'ma emas, balki bola bilan bo'ladigan muloqot jarayonining yetarli darajada olib borilmaganligi hamda muloqotga kirishish jarayonining kechikkanligi natijasida kelib chiqqan.

Tafakkur, fikr, nutq, muloqot va munosabat. Bu tushunchalar doimo birgalikda keladi. Ularning bir-biriga nisbatan ahamiyati yuqorida keng doirada qayd etildi. Umuman, hayotimizda biz duch keladigan har qanday holatlarga o'z munosabatimizni bildiramiz ya'ni ularga qarshi faol harakat qilamiz. Muloqotga kirishishimiz ham faol aqliy harakat. Bu harakatimizning quroli esa nutq, unda foydalaniladigan so'zlar. Biz olib borayotgan faoliyatning samaradorligi ham nutqimizning ravonligiga bog'liq.

Natijalarining ko'rsatishicha, o'quvchilar tafakkurini yuksaltirishga turli ta'lim texnologiyalarinin qo'llash quyidagicha qator ta'limiy afzalliklarni qo'lga kiritish imkoniyatini berar ekan:

- O'qitishda jodiy muhit yaratiladi;
- o'quvchilar sifatli va ishonchli o'quv-didaktik va intellektual ma'lumotlar bilan ta'minlanadi, ya'ni ular shug'ullanayotgan sohasi bo'yicha o'zlari ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'ladi;
- ta'limda mulohaza, munozaralar o'quvchilar tafakkurini faollashtiradi;
- mustaqil fikr bildirishlarida, bilimlarni egallashlarida ishonchli usullardan bo'lib, o'zlashtirish lozim bo'lgan bilim ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

Demak, yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash joyizki, har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirish bugungi kuning asosiy maqsad vazifalaridan bir bo'lib kelmoqda. Ta'lim olayotgan o'quvchilar aynan ta'lim jarayoni orqali tafakkurlarini rivojlantirishni tashkil etish muhim ekan, darsda muloqot va munozaralardan foydalanib dars tashkil etish ijodiy tashkiliy-pedagogik faoliyat bo'lib, uning yordamida ta'lim-tarbiya jarayonining istiqbolli va samarali uslubiyatini yaratish hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da qayd etilgan raqobatbardosh zamonaviy kadrlarni tayyorlashga erishish mumkin ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Слостенин, В. А., Каширин В. П. / Психология и педагогика [Текст] / - М.: Академия 2007.
2. Орлова, В. А. Психология в вопросах и ответах: учебное пособие [Текст] / Б.А. Орехова. - М.: КНОРУС, 2009.
3. Karimova V. M. «Psixologiya» T.Sharq 2002y.
4. G'oziyev E. G'. «Umumiy psixologiya» 1-2 tom. Toshkent-2002y.
5. Ivanov P.I., Zufarova M. «Umumiy psixologiya» T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008 yil
6. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. «Umumiy psixologiya» T.: Fan va texnologiyalar 2010 yil
7. Климов Е.А. «Общая психология». Реч, Москва-2001
8. Qodirova, M., & Nasimov, D. (2022). MUTAFFAKKIR OLIMLARIMIZ O'QUV FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(5).
извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/6415>
9. Qodirova, M. (2021). O'SMIRLAR PSIXOLOGIYASI VA O'SMIR XULQ-ATVORINING O'ZIGA HOSLIGI . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(3).
извлечено от <https://primedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4021>
10. Qodirova, M. (2021). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISH QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(3). извлечено от <https://fll.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4025>